

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING MOLIVAVIY MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKCHILIGINI JORIY ETISH

Qarshigul Iskandarova

Bank- moliya akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11099571>

Annotasiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilishi va unda davlat xususiy sherikchiligini joriy etishning zamonaviy nazariyalari va ularning o'ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirishda davlatning va davlat byudjetining mablag'larining roli to'g'risidagi ilmiy xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqotlar asosida oliy ta'lim tizimiga moliyaviy mustaqillik berilishi va uni moliyalashtirishda davlatning rolini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim muassasasi, moliyaviy menejment, moliyalashtirish, moliyaviy mustaqillik, moliyaviy mustaqillikni joriy etilishi, ta'lim to'lovi, oliy ta'lim bozori.

IMPLEMENTATION OF PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP IN ENSURING THE FINANCIAL INDEPENDENCE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. The article analyzes the modern theories of financial independence of higher education institutions and introduction of public-private partnership and their specific aspects. Scientific conclusions about the role of state and state budget funds in financing the higher education system have been formed. Based on research, scientific proposals and recommendations aimed at providing financial independence to the higher education system and improving the role of the state in its financing have been developed.

Key words: higher education institution, financial management, financing, financial independence, introduction of financial independence, education fee, higher education market.

РЕАЛИЗАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОГО ПАРТНЕРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В статье анализируются современные теории финансовой независимости высших учебных заведений и внедрения государственно-частного партнерства и их особенности. Сформированы научные выводы о роли средств государства и государственного бюджета в финансировании системы высшего образования. На основе исследований разработаны научные предложения и рекомендации, направленные на обеспечение финансовой независимости системы высшего образования и повышение роли государства в ее финансировании.

Ключевые слова: высшее учебное заведение, финансовый менеджмент, финансирование, финансовая независимость, введение финансовой независимости, плата за обучение, рынок высшего образования.

Oliy ta'lim tizimi yuqori texnologiya, malaka, tajribalar va fiskal cheklanishlar doirasida davlat majburiyatlari saqlanib qolinishi o'rtasida to'qnashuvlarga duch keladi. Oliy ta'limning boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimidan farqli jihati uning bozor iqtisodiyoti qonunlariga bo'ysinib ishlay olish imkoniga ega ekanligidir. Unda o'zaro raqobat va narx omilining muhim ahamiyatga

ega ekanligi tizimda moliyaviy menejmentning zaruriy kategoriya sifatida vujudga kelishini asoslaydi. Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish nafaqat inson kapitalini rivojlantirish, balki mamlakatni uzoq istiqbolda geosiyosiy maydondagi obro'yini mutahkamlashga xizmat qiluvchi omillardan bo'lib hisoblanadi.

XXI asrda jahon iqtisodiyoti, global munosabatlar keskin o'zgarishlar va o'ta mohirona yondashuv, tajribani talab etayotgan tizimga aylandi. Bu esa. Yuqori bilim va malakalarni talab etishi bilan oliy ta'limga bo'lgan, ayrim hollarda umuman o'rganilmagan talablarni yuzaga kelishiga zamin hozirladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt nazariyasining vujudga kelishi va undan sanoat inqilobining to'rtinchi bosqichida keng ko'lamli foydalanish tendensiyasi oliy ta'lim bozorida moliyaviy qarorlar qabul qilishni ham tubdan qayta ko'rib chiqishning dolzarbligini ko'rsatib berdi.

Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish – keng imkoniyatlar garovidir. Darhaqiqat, yoshlarni har tomonlama yetuk kadr qilib tarbiyalash, ularga yetarlicha bilim hamda tajriba orttirish imkonini yaratish bugungi kunda har qachongidan dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Bunday vaziyatda, avvalo, oliy ta'lim tizimini isloh qilish eng muhim vazifalardan biridir.

Oliy ta'lim muassasalari asosan respublika budjet ta'minotida bo'lishiga qaramay budjetdan tashqari moliyaviy mablag'larni topish, uni oliy ta'lim tizimiga yo'naltirish masalalari ham dolzarblik kasb etmoqda. Bu esa o'z navbatida oliy ta'lim tizimi faoliyatini moliyalashtirish tizimining samaradorligi oshirish maqsadida oliy ta'lim muassasalarini nafaqat o'quv faoliyati bilan, balki ilmiy va innovatsion faoliyatni tijoratlashtirish, shuningdek qo'shimcha moliyaviy manbalarni izlab topishga asos bo'ladi. Hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish, ularga moliyaviy faoliyatida erkinliklar berish, ularni bosqichma bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish jarayoni olib borilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda 36 ta oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilgan hamda ularga moliyaviy mablag'larni boshqarishda bir qator erkinliklar berilgan.

O'zbekistonda "Moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarida davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida kadrlar tayyorlash uchun davlat budjetidan moliyalashtirish tartibini tasdiqlash to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilindi. Hujjat bilan moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta'lim muassasalarini bir talaba uchun to'g'ri keladigan o'rtacha xarajat miqdoridan kelib chiqib moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi.

U quyidagilarni tartibga soladi:

moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalariga moliya yili uchun ajratiladigan budjet mablag'lari hajmini aniqlashda qo'llaniladigan xarajatlar bazaviy normativlari;

moliya yilida xarajatlarning bazaviy normativlarini qo'llash yo'li bilan moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalari uchun budjet mablag'lari hajmini hisoblash tartibi.

Moliya yili uchun OTMga ajratiladigan budjet mablag'lari hajmini aniqlashda quyidagi xarajatlar bazaviy normativlari qo'llaniladi:

professor-o'qituvchilar hamda boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mehnatiga haq to'lash va rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlari;

bir nafar talabani o'qitish uchun joriy xarajatlar;

boshqa xarajatlar (kommunal xizmatlar, o'qitish xarajatlari, joriy ta'mirlash) hamda asosiy aktivlarni xarid qilish va kapital ta'mirlash uchun ajratiladigan mablag'lar;

davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyaviy mustaqillik berilgan oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tartibi.

Davlat buyurtmasini moliyalashtirish davlat buyurtmasi (davlat granti) asosida ta'lim olayotgan talabalarni o'qitishni moliyalashtirish bo'yicha namunaviy bitimga muvofiq amalga oshiriladi. U buyurtmachi (vazirlik, idora) hamda oliy ta'lim muassasasi o'rtasida tuziladi. Bitim imzolanganidan so'ng OTM budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetasini shakllantiradi va tasdiqlaydi.

Umuman olganda, oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish va unda davlat rolining ayrim jihatlari to'g'risida to'xtalib o'tmoqchimiz. Oliy ta'lim tizimi o'zining dastlabki rivojlanish bosqichiga chiqqan paytlarda davlat byudjetining ahamiyati yuqori bo'lgan. Ayni kunda ham ko'plab mamlakatlar oliy ta'lim muassasalariga egalik qilishni saqlab qolgan bo'lsada, moliyalashtirish mexanizmlariga ko'plab xususiy omillarni joriy etishga ulgurgan.

Oliy ta'lim tizimida mamlakat yoshlarini qamrov darajasini to'liq miqyosga olib chiqish va sifatini ta'minlash davlat byudjetiga katta moliyaviy yukni vujudga keltirar ekan. Bir paytda keltirib o'tilgan uchta kategoriyaning barqaror darajasiga erishish uchun to'rtinchi ko'rsatkichni ham qo'shimcha qilish vujudga kelmoqda.

Bunda xususiy moliyaviy manbalarning rolini oshirish va davlat oliy ta'lim muassasalari moliyaviy mustaqilligini to'liq ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish muhim, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, davlat byudjetining oliy ta'lim xarajatlarini qoplab berishdagi ulushi YaIM nisbatan yuqori bo'lishi yoki barqaror bo'lishi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Masalan, ayrim rivojlangan mamlakatlarda YaIMga nisbatan 2-3 foiz atrofidagi davlat byudjeti xarajatlari katta raqamlardagi oliy ta'lim bilan qamrov darajasini ko'rsatib beradi. Buning sababi esa, xususiy manbalardan samarali foydalanish miqyosining sezilarli ekanligi bilan izohlanadi.

Fikrimizcha, O'zbekistonda byudjet xarajatlarining YaIMga nisbatan ulushi katta ekanligi oliy ta'lim bilan qamrov olish miqyosini kichik miqdorda saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri davlat byudjeti katta miqdordagi mablag'larni ajrata olish imkoniyatiga to'liq ega emasligi va xususiy manbalardan foydalanish mexanizmlarining to'liq joriy etilmaganligi bilan ifodalash mumkin.

Bizningcha, oliy ta'lim tizimi qamrovi kichik ulushlarda bo'lgan paytda soliqlar orqali moliyalashtirish o'zining ijobiy natijasini berishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, oliy ta'lim tizimini davlat tomonidan moliyalashtirilishini ixtisoslashuv shaklida amalga oshirishni belgilash ham o'zining ijobiy natijasini beradi. Davlat byudjeti mablag'lariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi oliy ta'limda bozor iqtisodiyoti elementlaridan foydalanishini taqozo qilsa, ikkinchidan birinchi darajali ijtimoiy masalalarni moliyalashtirish ustuvorlik kasb etib bormoqda. Bularga misol sifatida maktab ta'limiga bo'lgan talab ortishi, pensiya tizimi xarajatlari ortishi va majburiy tibbiy sug'urta tizimining amalga kiritilishi kabi rivojlanish tendensiyalarini keltirish mumkin.

Bizningcha, oliy ta'lim xizmatlarini moliyalashtirishda quyidagi omil va yo'nalishlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- oliy ta'limning davlat buyurtmalari asosida moliyalashtiriladigan sohalarini belgilash;
- aholining ma'lum qatlamiga oliy ta'lim xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun moliyaviy mablag'lar manzilliligini ta'minlash;
- oliy ta'lim muassasalarida maqsadli tayyorlov uchun kvotalar ajratilishida universitetga to'liq mustaqillikni taqdim etish;
- oliy ta'lim muassasalarida xorijiy talabalar jalb etilishida to'lov shartnoma qiymatini mustaqil belgilash vakolatini berish.

Xulosa qilib aytganda, bugun oldimizda turgan asosiy vazifa ta'lim tizimini yuksak cho'qqilarga chiqarish, oliy ta'lim muassasalarining nufuzini yanada oshirish, ta'lim sifatini yanada yaxshilash, davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillikni berish, professor-o'qituvchilarning ilmiy darajasini oshirish orqali bo'lajak kadrlarga yetarlicha kasbiy hamda dunyoviy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

REFERENCES

1. Raxmonov D.A. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: i.f.d. ... avtoreferat. – Toshkent, TDIU. – 2018. – 72 bet.
2. Azimov A.E. Ta'lim tizimini moliyalashtirishning xorij tajribasi// Zamonaviy ta'lim. – 2014. - №2. – B.17-22.
3. G'ulomov S., Ochilov I., Saydaxmedov O. Intellektual iqtisodiyotda samaradorlik omillari//O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi jurnali. – Toshkent, 2015. - №6. – B.38-41.
4. Махмудов А. Олий таълим муассасаларида молиявий ресурсларни бошқариш механизмини такомиллаштириш, иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, 2019, -45б.